

O'ZBEK DOSTONLARINING JANR XUSUSIYATLARI**Jovliyeva Dildora***Termiz davlat universiteti talabasi***Ximmatova Go'zal***Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining yirik epik janri bo'lgan dostonlarning janr xususiyatlari, mazmuniy va badiiy jihatlari tahlil qilinadi. Dostonlarning xalq tarixini, milliy qadriyatlarni va qahramonlik g'oyalarini aks ettirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, baxshichilik an'analari va dostonlarning badiiy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: doston, o'zbek xalq dostonlari, baxshi, baxshichilik san'ati, epik janr, xalq og'zaki ijodi, folklor, qahramonlik, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, an'ana, og'zaki ijod, epik asar, badiiy tasvir vositalari, xalq madaniyati, tarixiy xotira, ma'naviy meros, obraz, epik qahramon.

Аннотация: В данной статье анализируются жанровые особенности, содержательные и художественные аспекты дастанов — крупного эпического жанра узбекского устного народного творчества. Освещается роль дастанов в отражении истории народа, национальных ценностей и идей героизма. Также рассматриваются традиции бахшичества и художественное значение

Annotation: This article analyzes the genre features, thematic content, and artistic aspects of dastans, which are a major epic genre of Uzbek oral folk literature. It highlights the role of dastans in reflecting the history of the people, national values, and heroic ideals. In addition, the traditions of bakhshi performance and the artistic significance of dastans are discussed.

Ключевые слова: дастан, узбекские народные дастаны, бахши, искусство бахшичества, эпический жанр, устное народное творчество, фольклор, героизм, патриотизм, национальные ценности, традиция, устное творчество, эпическое произведение, художественные средства, народная культура, историческая память, духовное наследие, образ, эпический герой.

Keywords: *dastan, Uzbek folk dastans, bakhshi, bakhshi performance art, epic genre, oral folk literature, folklore, heroism, patriotism, national values, tradition, oral creativity, epic work, artistic devices, folk culture, historical memory, spiritual heritage, image, epic hero.*

O'zbek xalq og'zaki ijodi asrlar davomida shakllanib kelgan boy madaniy merosdir. Uning eng yirik va murakkab janrlaridan biri doston hisoblanadi. Dostonlar xalqning tarixiy o'tmishi, ijtimoiy hayoti, orzu-umidlari va qahramonlik ruhini badiiy shaklda ifodalaydi. Ular avlodlardan avlodga og'zaki tarzda baxshilar tomonidan kuylab kelingan bo'lib, milliy ong va ma'naviyat shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Doston epik janr sifatida keng voqealar tizimi, ko'plab obrazlar va chuqur g'oyaviy mazmun bilan ajralib turadi. O'zbek dostonlarida asosan qahramonlik, vatanparvarlik, sadoqat, muhabbat va adolat g'oyalari yetakchi o'rin egallaydi. "Doston" atamasi va uning kelib chiqishi haqida adabiyotlarda juda ko'p tahliliy fikrlar uchraydi. O'zbek tilining izohli lug'atida "doston" atamasiga quyidagi ta'riflar berilgan: 1) nazm bilan yozilgan ulkan hikoya, qissa poema; 2) xalq qahramonlari haqida nazm va nasrda aytilgan epik asar; 3) kechmish voqealar: sarguzasht: dard-u Hasrat; 4) ogizdan-og'izga o'tib yurgan ma'lum, mashhur sarguzasht hikoyalar, gap so'zlar, ta'rif-tavsiflar. Bu ta'riflar ichidan ikkinchisi, "xalq qahramonlari haqida nazm va nasrda aytilgan epik asar" aynan biz so'z yuritayotgan "doston" janri uchun xos.

Dostonlarda xalqning turmush darajasi, ijtimoiy ahvoli, ijodkorligi shuningdek ijtimoiy, siyosiy holat haqida ham ayri ma'lumotlar keltiriladi. Bu doston tinglovchiga uning mohiyatini aniq tasavvur qilishiga va anglashiga yordam beradi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar ham talaygina. "Doston" Dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodida ham mumtoz adabiyotda ham keng tarqalgan. Dostonlar nazmda yoziladi va nasr qismi asosan bog'lovchi vazifasini o'taydi. Jahon mumtoz adabiyotida ham dostonlar alohida o'rin tutadi. Dostonlar boshqa janrlarga qaraganda ta'sir etish kuchi va g'oya jihatidan pishiqligi bilan ajralib turadi. Dostonlarda ilgari surilgan g'oyalar vatanparvarlik, millat ruhini ko'tarishga qaratilgan motivatsion g'oyalar, mehnatsevarlik, donolik, sabr va matonat, do'stga va vatanga sadoqat kabi tuyg'ular ulug'langan. O'zbek dostonchiligi asrlar davomida rivojlanib, boyib borgan. Dostonlarning asrdan-asrga, yildan-yilga rang-

baranglashib borishini dastlab yaratilgan va tosh bitiklarga o'yib yozilgan O'rxun-Enasoy bitiklarida, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarlarida, shungdek ularning yorqin namunalaridan "Alpomish" va "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida aks etgan badiiy tasvirlar, g'oya va tuzilish jihatidan izchillik misolida ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy o'zbek folklorshunosligida yetakchi olimlar va doston aytuvchilar tomonidan ham "Alpomish" dostonining xususiyatlari ulardagi obrazlar tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, J. Eshonqulov, A. Poyonov, Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, To'ra Mirzayev, Shomirza Turdimov kabi folklorshunos olimlar va doston aytuvchilar ijrosini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Doston ijro etuvchi baxshilar qadimdan xalq orasidan ajralib chiqqan, o'zining so'zga chechanligi, hozirjavoblighi, ijro mahorati bilan ajralib turgan. Dostonlarda ideallashtirish, mubolag'a san'ati ustunlik qilgan. Doston aytuvchining mahorati va so'zga chechanligi aynan mana shu joyda juda zarur bo'lgan. Dostonlar turlariga ko'ra tarixiy-jangnoma, kitobiy, ishqiy-romanik, qahramonlik kabi turlarga bo'lib o'rganiladi. Xalq og'zaki ijodiyotida eng keng tarqalgan doston turlaridan biri - bu qahramonlik turidagi dostonlar doir. Qahramonlik turidagi dostonlarda vatanparvarlik, go'zallik, jasorat, mardlik kabi fazilatlar ulug'lanadi va uar negizida voqealar rivoj topadi. Xalq og'zaki ijodiyoti bunday turdagi dostonlarga juda boy. Ularda ilgari surilgan go'yalar xalqni birlashtirishga, qahramonlikka, jasoratga, fidoiylikka undaydi. Misol uchun, Alpomish dostonini oladigan bo'lsak. Alpomish "Alpomish" dostonining markaziy qahramoni bo'lib, u o'zbek xalqining ideal qahramon timsolidir. Uning obrazida xalq orzu qilgan eng yuksak fazilatlar mujassam: kuch-qudrat, mardlik, vafodorlik va vatanparvarlik. Alpomish dostonida kuch egasi sifatida tasvirlanadi. U yoshligidan tengqurlaridan kuchli bo'lib, og'ir sinovlarni yengib o'tadi. Biroq uning kuchi faqat jismoniy emas, balki ruhiy matonati bilan ham namoyon bo'ladi. U asirlikda bo'lganida ham irodasini yo'qotmaydi. Alpomish kuchidan faqat adolat yo'lida foydalanadi. U zaiflarni himoya qiladi, zolimlarga qarshi chiqadi. Hatto dushmanlariga nisbatan ham insoniy munosabatni saqlashga harakat qiladi. Dostonida Alpomish obrazi ideallashtirilgan. U deyarli mag'lub bo'lmas, xatoga kam yo'l qo'yadigan qahramon sifatida tasvirlanadi. Bu holat xalq og'zaki ijodiga xos bo'lib, qahramon orqali muayyan g'oyalar targ'ib qilinadi. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Alpomish obrazi — o'zbek xalqining ma'naviy ideali. U kuchli, mard, vafodor va

adolatparvar inson timsoli bo'lib, yosh avlod uchun ibrat maktabidir. Shu sababli Alpomish obrazi asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda..Jangnoma (tarixiy) dostonlar: Tarixiy shaxslar va real voqealar asosiga quriladi. Masalan, "Yusuf va Ahmad", "Ali boti" kabi asarlar.Ishqiy-romantik dostonlar: Insoniy tuyg'ular, sevgi va sadoqat mavzularini yoritadi. "Kuntug'mish", "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam" shular jumlasidandir: Diniy-ma'rifiy dostonlar: Islom dini qahramonlari hayoti va axloqiy o'gitlar haqida hikoya qiladi. O'zbekistonda bir necha yirik dostonchilik maktablari shakllangan: Bulung'ur maktabi (Fozil Yo'ldosh o'g'li);Qo'rg'on maktabi (Po'ltan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li) Shahrisabz va Sherobod maktablari.Yozma adabiyotda doston janrini Alisher Navoiy o'zining "Xamsa" asari bilan yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham dostonchilik an'analari davom etmoqdalar.Dostonlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning baxshichilik san'ati bilan uzviy bog'liqligidir. Baxshi nafaqat ijrochi, balki ijodkor ham bo'lib, dostonni kuy, ohang va she'riy nutq orqali tinglovchiga yetkazadi. Bu esa dostonlarning ta'sirchanligini yanada oshiradi.Badiiy jihatdan dostonlar boy tasvir vositalari, mubolag'a, takror, ramziy obrazlar va dialoglarga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu vositalar orqali qahramonlarning jasorati, ruhiy kechinmalari va voqealar keskinligi yanada yorqin ifodalanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish kerakki, o'zbek xalq dostonlari xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy og'zaki ijodiy merosining muhim qismi hisoblanadi. Dostonlar orqali xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, qahramonlik va vatanparvarlik g'oyalari avloddan avlodga yetkazib kelinadi. Ularni o'rganish jarayonida o'quvchilarda nafaqat adabiy bilim, balki estetik did, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barkamollik ham shakllanadi. Shuningdek, dostonlarni ta'lim jarayonida interfaol usullar asosida o'qitish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirib, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Umuman olganda, dostonchilik an'analarni o'rganish va asrab-avaylash o'zbek xalqining madaniy o'zligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Alpomish. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchi Hamid Olimjon. Mas'ul muharrir S.Husayn va Hodi Zarif. Toshkent.: O'zdavnashr, 1939.
2. Mirzayev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. - Toshkent: Fan, 1968.
3. Imomov K. O'zbek xalq dostonlari. – Toshkent: Fan, 2008.
- 4.Mirzayev T. Xalq og'zaki ijodi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
- 5.Jumayev M. O'zbek folklori. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
- 6.Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.